

INNOVATSION JARAYONLAR VA UNING BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Karimboyeva Nozima Abduali qizi

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 1-son kasb hunar maktabi Kompyuter tarmoqlari va administratorlash fani o'qituvchisi, Ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Mo'minova Shohida Izzatillaevna

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 1-son kasb hunar maktabi Qishloq xo'jaligi kooperativ ish yurituvchi fani o'qituvchisi, Ishlab chiqarish ta'lim ustasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada innovatsiya tushunchasi, pedagogika sohasida yangi zamonaviy texnologiyalarni, innovatsiyalarni qo'llashning ahamiyatli jihatlari haqida mulohaza yuritilgan, shuningdek innovatsion jarayonlarning ta'lim tizimidagi o'rni keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, jarayon, pedagogika, innovatsiya, pedagog, faoliyat, yangilik, fan, tarbiya, jamiyat, soha, texnika.*

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarni ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi.

Jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar kelajakda mamlakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta'lim tizimiga ham bog'liq ekanligini hisobga olish kerak.

Shu bilan birga intellektual salohiyatning o'sishi, sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta'lim samaradorligining oshishiga, shu sohadagi tizim takomillashuviga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizim barcha sohalarining o'sishiga ham sezilarli darajada ta'sir etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limdagi strategik yo'nalishlardan biri ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilayapti.

Zamonaviy dunyoda ta'lim-tarbiya va ilm-fan har qanday mamlakat taraqqiyotining birlamchi omillaridan biri sanaladi. Biz bugun XXI asrga qadam qo'ydik, hamma tizimda yangilik va o'zgarishlar, jadal rivojlanishlar davom etmoqda. Shunga mos ravishda ta'lim-tarbiya tizimiga ham munosabat mutlaqo o'zgarimoqda. Yangi avlodni yangicha ruhda tarbiyalash, yangicha yashashga, fikr yuritishga o'rgatish zarurligini birinchi prezidentimiz I. Karimov asoslab berdi. Bu natijaga erishish uchun esa, ta'lim-tarbiya va ilm-fan mazmunini yangilash, yangicha boshqarish, yangicha qurish va islox etish zarur edi. Shu munosabat bilan fanlarni o'tilishidagi an'anaviy usullardan noan'anaviy usullarga, ta'limning innovatsion usullariga o'tish orqali bunga erishish mumkinligi ko'rinib qoldi.

Xozirgi zamon fan va texnikasining rivojlanishi borgan sari sifat jixatidan yangi masalalarni xal etish; ijtimoiy amaliyotga tub yangiliklarni tatbiq qilishning, ularni amalga oshirish jarayonlarini tubdan o'zgartirishga yo'naltirilgan. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda yangiliklardan foydalanish jamiyatning yashovchanligini ko'p jixatdan belgilab beradi. Shu sababli XXI asr boshlarida barcha rivojlangan mamlakatlarning ilmiy siyosati fanning o'z potensialini mustaxkamlashgagina qaratilmasdan, balki uning yutuqlarini samarali amalga oshirishni ta'min etadigan jarayonlarga ham qaratildi. Jumladan, innovatsiyalarni yaratish va tarqatishning yagona, puxta ishlab chiqilgan mexanizmi hozirgi vaqtda jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning majburiy quroli bo'lib qolmoqda.

Ilgor pedagogik texnologiyalar - pedagogik tajriba va hozirgi zamon psixo-pedagogik nazariyasi ham umumta'lim, ham kasbiy ta'limning butun tizimini oziqlantiradigan ikki manbadir. Ayni shular orqali yaxlit ta'lim tizimini qayta qurish talablariga javob beradigan sifat o'zgarishlari ro'y beradi. Nazariyaning amaliyotdan orqada qolayotganligi sababli innovatsion o'qitishning to'g'ri yo'lga qo'yilishida juda ko'p to'siqlarga duch kelinmoqda.

Pedagogik tizimning hozirgi va ertangi kun talablariga to'la javob beradigan yangi sifatga o'tishini tezlashtirish uchun innovatsion ta'limni, undan kelib chiqadigan bilishning ilmiy vositalarini ishlab chiqish, ilgor pedagogik tajribani taxlil etish va yoyishni jadallashtirish zarur.

Hozirgi vaqtda o'qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalariga sifat jixatdan tez o'tish uchun ob'ektiv asos yuzaga keldi, chunki iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi innovatsion jarayonlar o'z-o'zidan ta'limda ham tub o'zgartirishlarni taqozo etmoqda. Xech bir o'qituvchi ertami-kechmi bu jarayondan chetda qolishi mumkin emas. O'qituvchining an'anaviy ish usullari fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi yoki o'qitishni kompyuterlashtirish sifatlarini o'zlashtirish zaruriyati, ilmiy-metodik asoslash ehtiyojining tug'ilishida ob'ektiv omil bo'lib qolmoqda.

Innovatsiya (inglizcha "innovation") - yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni bildiradi. A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi. Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasining paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

kasbiy faoliyatning ongli tahlili;

me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;

kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;

dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;

o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Bugungi kunda ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat. Bu holat bugungi kunda o'ta dolzarbligi bilan muhimdir, chunki, ushbu jarayon (innovatsion jarayon) ta'lim muassasalarining yashash sharti (bevosita va ko'chma ma'noda ham), kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo'lib ham xizmat qiladi.

Zamon, ta'lim muassasalari oldiga yangi, mumkin bo'lmagandek tuyulgan vazifalarni, ya'ni eskichasiga ishlab turib, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni taqozo qilmoqda. Barcha yangiliklarga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashadigan, o'tmish boyliklarga, tajribalarga e'tiqod ruhida tarbiyalangan, stabillikni yoqtiradigan keksa avlodni, shuningdek hech qanday o'zgarishlarni xohlamaydigan pedagoglarni ham tushunish mumkin. Bunday holatda ular "innovatsion jarayonlar orqasidan quvish" bugungi kun hayotimizning ajralmas qismi ekanligini ham tushunishlari zarur.

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi rivojlanish zamonida ta'limga yangi innovatsiyalarni kiritish eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Bu yo'lni tanlashni ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog amaliyotda qo'llashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda».
3. Mavlonova R.A., To'raeva O.T., Xoliqberdiev K.M. -«Pedagogika» T., «O'qituvchi » - 2008-y.
4. Yo'ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari.
5. Juraev R.H., Tolipov U.Q., SHaripov SH.S., "Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'nalitirishning ilmiy-pedagogik asoslari" T.:, Fan nashriyoti, 2004- yil.
6. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash.
7. Internet materiallari.
9. Do'saliyeva, S. S. (2022). YOSH KIMYOGARLARNI KIMYO FANIDAN MURAKKAB MASALALARNI YECHISHIDA AMALIY BILIMLARNING AXAMIYATI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(13), 588-590.
10. Назаров, О. М., & Дусалиева, С. Ш. К. (2022). КОМПОНЕНТНЫЙ СОСТАВ ЭФИРНОГО МАСЛА ЛИСТЬЕВ RUBUS IDAEUS L. *Universum: химия и биология*, (5-2 (95)), 34-36.
11. Ибрагимов, А. А., Дусалиева, С. Ш. К., & Тургунбаев, Ш. Ш. У. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ МИНЕРАЛЬНОГО СОСТАВА РАСТЕНИЯ CYDONIA OBLONGA MILL. МЕТОДОМ ISP-MS. *Universum: химия и биология*, (11-1 (101)), 58-61.
12. Do'saliyeva, S. S. (2023). SARIMSOQPIYOZ O'SIMLIGINING XALQ TABOBATIDAGI AXAMIYATI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(15), 73-76.
13. Do'saliyeva, S. S. (2023). CYDONIA OBLONGO O'SIMLIGINING XALQ TABOBATIDAGI AXAMIYATI. *Scientific Impulse*, 1(9), 411-413.